



Ta'lim krediti kimlarga beriladi?

3-betda o'qing



O'qituvchi dars soati taqsimotidan norozi

4-betda o'qing

INSON va qonun

2024-YIL
17-SENTABR
SESHANBA

№ 37
(1449)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/

@huquqiyaxborot

Huquqiy axborot telegram kanaliga obuna bo'ling!

Huquqiy axborot telegram kanalida kuzating!

NAMANGANDA “YOSHLAR HUQUQIY SAYLI”



YURTIMIZDA yoshlar ongida qonunga hurmatni shakllantirish, jamiyatda yoshlarning rolini oshirish, ma'naviy-intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, ularni milliy qadriyat va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalash, yoshlarda vatanparvarlik, mardlik va jasurlik tuyg'ularini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Joriy yilning yanvar oyida Prezidentimiz boshchiligidagi o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida 4 million nafar yoshlarni 4 ta sektor kesimida 6 ta huquq-tartibot va mudofaa organlariga otaliqqa biriktirib, yangicha yo'nalishda ishlash tizimi belgilandi.

Shu munosabat bilan viloyatdagi otaliqqa olingan yoshlarni kasb-hunarga qiziqtirish, bandligini ta'minlash, ularda vatanparvarlik, mardlik va jasurlik ruhini uyg'otishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarga huquqiy jihatdan ko'mak berish orqali ular o'rtasida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarining oldini olish, shuningdek saylov

yoshiga yetgan yoshlarning saylov jarayonlaridan xabardorlik darajasini oshirish maqsadida Namangan viloyati hokimligi, viloyat adliya boshqarmasi, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar hamda viloyatdagi oliy ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligi yo'lga qo'yildi.

Yaqinda Namanganda o'tgan “Yoshlar huquqiy sayli”da ikki mingdan ortiq yoshlar ishtirok etdi. Tadbirida yig'ilganlarga viloyat yoshlari hayoti, ularning huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar haqida ma'lumot berildi.

“Yoshlar huquqiy sayli”da huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, sudlar, FHDY va notariuslar,

boshqa mas'ul idoralar vakillari tomonidan ishtirokchilarga bepul huquqiy maslahat berish va ularning murojaatlarini sayyor tartibda qabul qilish orqali huquqiy ko'mak ko'rsatildi.

Otaliqqa olingan yoshlar o'rtasida sportning yugurish, darts, arqon tortish musobaqasida har bir tumandan 10 nafardan ishtirokchi g'oliblik uchun bahs olib bordi. Tadbir yakunida har uchala shart bo'yicha g'olib bo'lgan yoshlar adliya boshqarmasining faxriy yorlig'i va esdalik sovg'asi bilan taqdirlandi.

Dilmurod AHMEDOV,
Namangan viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i



5-betda o'qing

Hisobda ko'p, to'lovda kam. Nega?



6-betda o'qing

Nafs domiga ilinganlarning onlayn operatsiyasi fosh bo'ldi



8-betda o'qing

O'rinli maslahat

2 “SAYLOV – 2024”

MUHIM SIYOSIY
JARAYONHAR BIR SAYLOVCHI BIR
OVOZGA EGAKONSTITUTSIYANING XXII bobi
“Saylov tizimi” deb nomlanadi.

Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga ega. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o‘z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda – oktabr oyi uchinchi

o‘n kunligining birinchi yakshanbasida o‘tkaziladi, bundan ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan muddatidan ilgari saylov o‘tkazish hollari mustasno. Saylovlar umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasining o‘n sakkiz yoshga to‘lgan fuqarolari saylash huquqiga ega.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko‘ra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishi mumkin. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bir vaqtning o‘zida ikkidan ortiq davlat hokimiyati vakillik organining deputati bo‘lishi mumkin emas.

Saylov o‘tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

Oliy Majlis Senati a‘zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so‘ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadi.

IKKI PALATALI PARLAMENT

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi (parlament) ikki palatadan: Senat va Qonunchilik palatasidan iborat.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi qonunga muvofiq saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat.

Oliy Majlisning Senati hududiy vakillik palatasi bo‘lib, Senat a‘zolaridan (senatorlardan) iborat.

Oliy Majlis Senatining to‘qqiz nafar a‘zosi fan, san‘at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolar orasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi.

Saylov kuni yigirma besh yoshga to‘lgan hamda kamida besh yil O‘zbekiston Respublikasi hududi-da muqim yashayotgan fuqaro Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputati, shuningdek, Oliy Majlis Senati a‘zosi bo‘lishi mumkin. Deputatlikka nomzodlarga qo‘yiladigan talablar qonun bilan belgilanadi.

Ayni bir shaxs bir paytning o‘zida Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi deputati va Senati a‘zosi bo‘lishi mumkin emas.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining deputati bir vaqtning o‘zida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlarining deputati bo‘lishi mumkin emas.

MAHALLIY KENGASHLAR

Mahalliy hokimiyat organlari, masalan, hokimliklar va mahalliy kengashlar darajasida saylovlar mahalliy qonunlar va qoidalarga muvofiq o‘tkaziladi. Fuqarolar mahalliy hokimiyat organlariga vakillarni saylash huquqiga ega, bu esa mahalliy manfaatlar va boshqaruvni hisobga olish zarurligini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston saylov tizimi saylov jarayonini nazorat qiluvchi, uning shaffofligi va qonuniyligini ta‘minlovchi turli darajadagi mustaqil saylov komissiyalarini tashkil etishni nazarda tutadi. Markaziy saylov komissiyasi barcha saylov organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi, shuningdek, nizolar va saylov qonunchiligi buzilishi holatlarini hal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining saylov tizimi demokratik tamoyillar va fuqarolar manfaatlarini samarali ifoda etishni ta‘minlashga qaratilgan. Bu tizimning zamirida saylov jarayonini tartibga soluvchi va saylov jarayonining yaxlitligini ta‘minlovchi keng qamrovli qonunchilik yotadi. Qonunchilik va nazorat tizimlarining doimiy takomillashtirilishi davlatning demokratik asoslarini mustahkamlashga, fuqarolarning saylov tizimiga ishonchini oshirishga xizmat qilmoqda.

Qumriniso ABDURASULOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
professori, yuridik fanlar doktori

“E-SAYLOV” TIZIMIDAN
KIMLAR FOYDALANADI?

HAR bir demokratik davlatda fuqarolarning saylov huquqi xalq farovonligining muhim elementi hisoblanadi. Davlat hokimiyatining yagona manbai aynan xalqdir. Xalqning ijtimoiy va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq manfaatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi va xalq muhokamasiga kiritilishi kerak. Bu orqali referendum umumxalq ovozig qo‘yiladi. O‘zbekiston Respublikasida ham fuqarolarning saylov huquqi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangan.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining tegishli bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan Markaziy saylov komissiyasi bilan hamkorlikda “E-saylov” axborot tizimi ishlab chiqildi.

Mazkur axborot tizimi saylovlarni samarali tashkil qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali saylov jarayoni ishtirokchilari tomonidan saylov komissiyalariga hujjatlarni taqdim etish, saylov komissiyalarining qarorlarini qabul qilish, shuningdek, saylovlarni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq boshqa harakatlarni elektron shaklda amalga oshirish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Markaziy saylov komissiyasining qaroriga asosan “E-saylov” axborot tizimining reglamenti tasdiqlangan. Unga ko‘ra, barcha darajadagi saylov

komissiyalari, siyosiy partiyalar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman, shahar Kengashlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tuman, shahar hokimliklari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, deputatlikka nomzodlar va ularning ishonchli vakillari, xalqaro va xorijiy kuzatuvchilar, shuningdek, Tashqi ishlar vazirligi “E-saylov” axborot tizimidan foydalanuvchilar hisoblanadi.

Saylov jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarni to‘liq raqamlashtirish, saylov tartibotlaridagi byurokratiya, ortiqcha vaqt sarfi va hujjatlar harakatini qisqartirish, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, saylovlarga oid ma‘lumotlarning yanada ochiqligini ta‘minlash maqsadida “E-saylov” axborot tizimi ishlab chiqildi.

“E-saylov” axborot tizimi idoralararo platformalar bilan integratsiya qilinib, saylov jarayonidagi byurokratik tartibotlarni keskin qisqartirish va ma‘lumotlar almashinuvini inson omilisiz to‘liq avtomatlashtirilgan tizimda amalga oshirishga yordam beradi.

“E-saylov” axborot tizimiga OneID orqali kiriladi. U elektron hukumat tizimi foydalanuvchilariga identifikatsiya qilishning yagona axborot tizimi hisoblanadi. Tizimdan foydalanuvchilar tomonidan saylov to‘g‘risidagi qonunchilikda ko‘rsatilgan talablar bo‘yicha tayyorlangan so‘rovnoma tegishli saylov komissiyalariga “E-saylov” axborot tizimi orqali elektron tarzda yuboriladi.

Tizimdan foydalanuvchilar
“E-saylov” axborot tizimi orqali
so‘rovnoma yuborishi uchun ERI
kalitiga ega bo‘lishi kerak.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi deputatligiga nomzodlar va ularning ishonchli vakillarining so‘rovnomalardan tashqari barcha murojaatlar tizimdan foydalanuvchining ERI bilan tasdiqlanadi.

Tizimdan foydalanuvchi yuridik shaxsning rahbari ERI orqali “E-saylov” axborot tizimiga kiradi. Tegishli so‘rovnoma turini tanlaydi, uni shakllantiradi hamda ERI bilan imzolaydi. So‘rovnoma tegishli saylov komissiyasiga avtomatik tarzda yuboriladi.

Tizimdan foydalanuvchilarning “E-saylov” axborot tizimidagi shaxsiy kabinetiga kirishi Yagona identifikatsiya tizimi (OneID) orqali ERIdan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bundan deputatlikka nomzodlar va ularning ishonchli vakillari mustasno.

Deputatlikka nomzodlar va ularning ishonchli vakillari shaxsiy kabinetiga kirish “E-saylov” axborot tizimida ularning ro‘yxatga olingan shaxsiy mobil telefon raqamiga yuborilgan SMS-xabarnomadagi maxfiy kodni kiritish orqali amalga oshiriladi.

Muxtasar qilib aytganda, “E-saylov” axborot tizimi parlament saylovi tartibini amalga oshirish uchun yetarlicha afzalliklarga ega bo‘lgan raqamli texnologiyalarning ishlanmasidir. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi parlament saylovlarni o‘tkazishda raqamli texnologiyalarni rivojlantirishni qamrab olgan saylovni texnologiya va ochiqlik nuqtayi nazaridan mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishiga ishonamiz.

Aysulu MURATBAYEVA,
Toshkent davlat yuridik
universiteti talabasi

HUJJATLARNING TEXNIK EKSPERTIZASI TURKIYA TAJRIBASI MISOLIDA



MAMLAKATIMIZDA sud ekspertiza sohasida xalqaro hamkorlikni ta'minlash va rivojlantirish, kadrlar tayyorlash, salohiyatini oshirish hamda tizim faoliyatiga fan-texnika yutuqlarini joriy etish sud ekspertizalarining sifati va ishonchliligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimizning 2021-yil 5-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasida sud ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan konsyepsiyasi” tasdiqlangan. Unda sud ekspertlarining kasbiy bilim va malakasini oshirishda xorijiy sud ekspertlik tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, bunda har yili kamida 10 nafar sud ekspertlarining grant mablag‘lari hisobidan xorijiy davlatlarda malaka oshirishi va stajirovka o‘tashini yo‘lga qo‘yish, xizmat safarida ekspertlarning kasbiy bilim va sohaviy ko‘nikmalarini oshirish hamda davlatlar o‘rtasida tajriba almashish bo‘yicha hamkorlikni mustahkamlash belgilangan.

Mazkur konsepsiya doirasida shu yilning 2-28-iyun kunlari X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining 4 nafar davlat sud ekspertlari Turkiya Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud tibbiyot institutining markazi hamda Malayziya Fan, texnologiya va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Kimyo departamentida malaka oshirishdi. Bunda sud ekspertlari raqamli ekspertiza, sud-kompyuter texnik ekspertizasi, jumladan, lokal va global tarmoqlar, bulutli servis xizmatlari, zararli dasturlar, ulardan qolgan izlar tadqiqotlari imkoniyatlari, sud-xatshunoslik hamda hujjatlarning sud-texnik ekspertizalari imkoniyatlari, genetik jihatdan o‘zgartirilgan organizmlar, halollik tadqiqotlarini amalga oshirish yuzasidan malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishdi. Shuningdek, sohaga oid zamonaviy asbob-uskunalarining imkoniyatlari,

mavjud sud ekspertiza turi va tadqiqotlari o‘rganilib, tomonlar o‘rtasida bu yo‘nalishda o‘zaro tajriba almashildi.

Bundan tashqari, Turkiya Respublikasida sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, advokatlar va fuqarolarning murojaatlari yuzasidan sud-xatshunoslik hamda hujjatlarning texnik-kriminalistik tadqiqotlari bo‘yicha sud ekspertizalarini tayinlash tartibi va huquqiy asoslari o‘rganildi. Ta’kidlash kerakki, Turkiyada sud ekspertiza xulosalari davlat sud ekspertiza muassasalari, nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi muassasalar tomonidan sud ekspertizasini tayinlovchi organning qarori (ajrimi), so‘rovi va arizasi asosida rasmiylashtiriladi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonunining 17-moddasiga ko‘ra, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organ mansabdor shaxsining, surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning yoki sudyaning qarori, sudning ajrimi sud ekspertizasini o‘tkazish asoslari hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2023-yil 21-fevralda tasdiqlangan “Sud ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy Nizom”ning 3-bandiga binoan advokat so‘roviga ko‘ra, tadqiqotlar iqtisodiy, fuqarolik va ma’muriy ish yuritilayotganda ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog‘ida yoki sud muhokamasi jarayonida davlat sud ekspertiza muassasalari va nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari tomonidan shartnoma asosida ishonch bildiruvchi shaxsning

roziligi bilan amalga oshiriladi.

Davlat sud-ekspertiza muassasasi, nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti, ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi muassasa (tashkilot)lar tomonidan qonunchilikka ko‘ra, ruxsat etilgan sud ekspertizasi turlari bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq shartnoma asosida tadqiqotlar o‘tkazilib, mutaxassis fikri berilishi mumkin.

Turkiya Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Milliy axborot almashish tizimi ma’lumotlarini ekspertiza markaziga yuborish va undan xulosa natijasini qabul qilish uchun mo‘ljallangan elektron tizim ishlab chiqilgan. Tayyorlangan xulosa va ilovalar ushbu tizimga biriktirilib, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda ekspertiza tayinlangan organ (shaxs)ga yuboriladi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasida sud ekspertizalarini o‘tkazishga sarflanadigan vaqtni qisqartirish, xulosalarni rasmiylashtirishda ortiqcha qog‘ozbozlik, pochta xarajatlari hamda byurokratik holatlarga barham berish uchun davlat sud ekspertiza muassasalari va sud-tergov organlari o‘rtasida elektron hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi nazarda tutilgan.

Turkiya Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud tibbiyot instituti Fizika ixtisosligi boshqarmasida imzo va dastxatlar, yozuv qurilmalarida bajarilgan matnlarning kriminalistik tadqiqotlari, poligrafik mahsulotlar (hujjatning bosma usuli), muhr va shtamp izlari, yelimlangan rekvizitlar, qalbakilashtirishga qarshi maxsus himoyalangan hujjatlar tadqiqotlari (chek, pasport, shaxsni tasdiqlovchi hujjat, xizmat guvohnomasi, diplom, haydovchilik guvohnomasi, viza, yo‘l harakati qaydnomasi raqami, aksiz markalar, blankalar kabi hujjatlar), hujjatlarning ustidan to‘kilgan, suvalgan, chizilgan yozuvlarni aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar, hujjatlardagi barmoq izlari (imzoga tenglashtirilgan barmoq izlari bo‘yicha) tadqiqotlari, hujjatning dastlabki mazmunini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilishi o‘rganildi.

Dildora QO‘LDOSHOVA,

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining hujjatlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi katta eksperti



TA’LIM KREDITI KI MLARGA BERILADI?

O‘ZINGIZ yoki farzandingiz o‘qishga to‘lov-kontrakt asosida qabul qilindi. Lekin kontrakt summasini to‘lashga mablag‘ingiz yo‘q. Bunday vaziyatda sizda ta’lim kreditidan foydalanish imkoniyati mavjud.

Ta’lim krediti oliy va professional ta’lim tashkilotlarida to‘lov-kontrakt asosida o‘qiyotgan talaba va o‘quvchilarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilayotgan davlat budjeti mablag‘laridan samarali foydalanish maqsadida beriladi. 2024-yil 27-maydagi “Oliy va professional ta’lim tashkilotlari talabalari va o‘quvchilariga budget mablag‘lari hisobidan ta’lim kreditini ajratish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Prezident farmoni bilan ta’lim krediti berilishi tartibi o‘zgartirildi. Xususan, 2024/2025 – o‘quv yilidan boshlab Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Ta’lim kreditini moliyalashtirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ta’lim krediti ajratishning yangi tartibi joriy etildi. Farmonga ko‘ra, yangi o‘quv yilidan boshlab oliy va professional

ta’lim tashkilotlarida tahsil olish uchun ta’lim krediti faqat kunduzgi ta’lim shaklida o‘qiyotgan talaba va o‘quvchilarga ajratiladi.

Ta’lim krediti oliy ta’lim tashkilotlarining birinchi bosqich talabalari hamda professional ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari uchun to‘lov-kontrakt summasi miqdorida to‘lanadi. Oliy ta’lim tashkilotlarining ikkinchi va undan yuqori kurs talabalari uchun fanlarni o‘zlashtirishning o‘rtacha ko‘rsatkichi “3” dan past bo‘lgan taqdirda to‘lov-kontrakt summasining ko‘pi bilan 80 foizi miqdorida ajratiladi. “Ijtimoiy himoya yagona reestri”ga kiritilgan oilalar farzandlari bundan mustasno.

Shuningdek, mazkur farmonga ko‘ra, ta’lim krediti oliy ta’lim tashkilotlari talabalari uchun – talabalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Talabalarga shartnoma asosida ko‘rsatiladigan xizmatlar hisobini yuritish” (kontrakt. edu.uz) va “Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish” (HEMIS) axborot tizimi mavjud bo‘lganda ajratiladi. Professional ta’lim tashkilotlari o‘quvchilari uchun esa o‘quvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlar

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Professional ta’lim jarayonlarini boshqarish” (prof.edu.uz) axborot tizimida bo‘lsa, ajratiladi.

Ta’lim kreditining asosiy qarzi talabaning rasmiy o‘qish muddati tugagandan so‘ng yettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytariladi. Bunda, ta’lim kreditlari uchun foizlarni hisoblash va to‘lash ta’lim tashkilotiga mablag‘lar o‘tkazilgan sanadan boshlab, asosiy qarzni qaytarish esa kredit oluvchi tomonidan ta’lim tashkilotida ta’limning ushbu turi bo‘yicha o‘qishning rasmiy belgilangan muddati tugallagandan so‘ng 7-oydan boshlab amalga oshiriladi. Ta’lim krediti to‘lov-kontrakt shartnomasida (kontrakt)da ko‘rsatilgan 1 yillik to‘lov summasiga teng miqdordagi summaga tuziladi.

Tijorat banklari kredit oluvchining yozma arizasiga asosan to‘lov-kontrakt asosida o‘qish haqidagi shartnomada (kontraktda) nazarda tutilgan hollarda o‘qishning yarim yil yoki to‘liq bir yil uchun to‘lov summasini biryo‘la amalga oshirishi mumkin.

Kredit oluvchining tijorat bankidan olgan ta’lim krediti bo‘yicha muddati o‘tgan foiz qarzdorligi mavjud bo‘lsa yoki muntazam ravishda to‘lov muddatini o‘tkazib kelgan bo‘lsa, tijorat banki ta’lim krediti shartnomasida belgilangan tartibda kredit oluvchiga to‘lov-kontraktning navbatdagi qismi bo‘yicha yoki keyingi yillar uchun ta’lim kreditini ajratishni rad etishi mumkin.

Qaysi oliy o‘quv yurtiga qabul qilingan talabalar mazkur ta’lim kreditiga ega bo‘lishlari mumkin? Ayni vaqtda O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan barcha oliy ta’lim tashkilotlari, ya’ni, davlat, nodavlat oliy ta’lim tashkilotlari, xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari va ularning filiallari hamda qo‘shma ta’lim dasturlari bo‘yicha bakalavriatning kunduzgi ta’lim shaklida yoki magistratura bosqichida to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan ajratiladigan ta’lim kreditiga ega bo‘lishlari mumkin.

Agar qarz oluvchida qo‘shimcha mablag‘ mavjud bo‘lsa, ta’lim kreditini muddatidan oldin so‘ndirishga haqli. Deylik, talaba o‘qishni bitirib, birdan daromad manbaiga ega bo‘ldi – shunda u 7 oy faqat kredit bo‘yicha foiz to‘lab bormasdan, asosiy qarzni ham so‘ndirib borishi mumkin. Bunda kredit bo‘yicha umumiy to‘lovlar miqdori kamroq bo‘ladi.

! YODDA TUTING!

Har qanday uzoq muddatli kreditni muddatidan oldin so‘ndirish ushbu kredit bo‘yicha umumiy to‘lovlar miqdorining kamayishiga yordam beradi.

Dilshod PO‘LATOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

4 ADLIYA ODAMLAR ORASIDA

O'QITUVCHI DARS SOATI TAQSIMOTIDAN NOROZI

XO'JAYLI tumanidagi 27-sonli umumta'lim maktabining jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi M.S.ning maktabda o'quv soatlarining taqsimlanishidan norozi bo'lib yo'llagan murojaati adliya bo'limi tomonidan o'rganib chiqildi.

O'rganishda 2023/2024 – o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejasiga asosan, jismoniy tarbiya fani bo'yicha jami 38 soat bo'lib, ushbu dars soatlari 4 nafar jismoniy tarbiya fani o'qituvchisiga taqsimlangani aniqlandi.

Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tgan Nizomga asosan 1 stavkada ishlovchi o'qituvchiga haftalik darslik yuklamasi 20 soatni tashkil etishi, shuningdek, Nizomning 16-bandiga asosan maksimal o'quv soatini olish imkoniyatiga ega bo'lgan o'qituvchining yozma roziligi bilan ajratilishi mumkin bo'lgan o'quv soatlari boshqa o'qituvchilarga berilishi mumkinligi belgilangan.

Shunga qaramasdan, maktabning pedagogik kengashi majlisining 2023-yil 31-avgustdagi bayoniga ko'ra, fuqaro M.S.ga jismoniy tarbiya



fanidan 12 o'quv soati ajratilgan, biroq, yuqoridagi Nizomning 15-bandi talablariga ko'ra, M.S.ning darajasi II (toifali) bo'lishiga qaramasdan, boshqa o'qituvchilarga uning roziligisiz o'quv soatlari bo'lib berilgan.

Xo'jayli tuman adliya bo'limi tomonidan kiritilgan taqdimnomaga asosan ushbu masala yuzasidan yuridik xizmat ko'rsatish markazi xodimlari bilan birgalikda qayta ko'rib chiqilib, M.S.ga 18 soat dars soatlari taqsimlab berilishiga erishildi.

Atabek GULIMBETOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Adliya vazirligi mas'ul xodimi



34 YIL O'TGACH...

UCHQO'RG'ON tumanidagi "Ko'prikboshi" mahallasida yashovchi fuqaro Asranov Maxamatxonning otasi bundan o'ttiz to'rt yil avval vafot etgan. Biroq e'tiborsizligi sababli otasining o'limi haqidagi guvohnoma rasmiylashtirilmagan.

Fuqaro o'zi istiqomat qilayotgan uy-joyini notarial tartibda meros qilish borasida muammoga duch kelgach, vafot etgan otasining o'lganlik faktini belgilashda amaliy yordam so'rab, Uchqo'rg'on tuman adliya bo'limiga murojaat qilishga majbur bo'lgan.

Aniqlanishicha, otasi Asranov Murodilla 1902-yilda tug'ilgani, 1990-yil 19-dekabrda o'z yashash

xonadonida kasallik tufayli vafot etgani, Chortoq tumani, "Koroskon" mahallasidagi "Sulton Said" qabristoniga dafn qilingani, buni dafn marosimida qatnashganlar va mahalla ahli tasdiqlashi mumkinligi ma'lum bo'ldi.

Shunga ko'ra, fuqaroning otasi M. Asranovning vafot etganlik faktini belgilash yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Uchqo'rg'on tumanlararo sudiga kiritilgan ariza sud tomonidan ko'rib chiqildi. Asranov Murodillaning 1990-yil 19-dekabrda vafot etganlik faktini belgilash yuzasidan hal qiluv qarori qabul qilindi.

Azamat SHAMSIDDINOV,
Uchqo'rg'on tuman
adliya bo'limi boshlig'i

DO'KON BUZILGAN, ZARAR ESA "TUYA" QILINGAN

NURAFSHON shahar "Evalak" mahallasida yashovchi fuqaro N. Dehqonova shahar adliya bo'limiga murojaat qilib, onasi M. O'lmasovaga tegishli noturar bino, ya'ni savdo do'koni buzilishi natijasida ko'rilgan zararni qoplashda amaliy yordam berishni so'ragan.



O'rganish davomida aniqlanishicha, haqiqatan ham, O'rtachirchiq tuman hokimining 2017-yil 6-apreldagi qarori bilan berilgan hozirgi Nurafshon shahar (muqaddam O'rtachirchiq tuman hududi bo'lgan) Toshkent yo'li ko'chasidagi "Nodirabegim" istirohat bog'i hududida joylashgan Mo'tabar O'lmasovaga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan savdo do'koni buzilgan, lekin yetkazilgan zarar qoplab berilmagan.

Davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun fuqaro M. O'lmasovaga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan do'kon binosi buzilishi natijasida mulkdorga yetkazilgan zararning bozor qiymati

baholash faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan "Activ valuation" MCHJ tomonidan tuzilgan 2024-yil 17-maydagi baholash hisobotiga asosan 220 million 738 ming 199 so'mga baholangan.

N. Dehqonova 2024-yil 7-may kuni Nurafshon shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Zafar Turg'unov tomonidan o'ziga berilgan ishonchnomaga asosan mazkur masala bo'yicha shahar hokimligiga ariza bilan murojaat qilgan. Shahar hokimligi tomonidan esa davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun olib qo'yilgan yer maydoni hamda buzilishga tushgan bino-inshootlarning bozor qiymati kompensatsiya sifatida to'lab berilishi yuzasidan sudga murojaat qilishi maqsadga muvofiqligi tushuntirilib, javob xati berilgan.

To'plangan hujjatlarga ko'ra, shahar adliya bo'limi tomonidan fuqaro M. O'lmasovaning manfaatida javobgar shahar hokimligidan 220 million 738 ming 199 so'm kompensatsiya undirib berish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha O'rtachirchiq tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi. Da'vo ariza qanoatlantirilib, sudning hal qiluv qarori qabul qilindi.

Gulboy RAHMONQULOV,
Nurafshon shahar
adliya bo'limi boshlig'i

SHIFOKOR BILAN YAKUNIY HISOB-KITOB QILINMAGAN

NARPAY tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli Ko'p tarmoqli markaziy poliklinikada ishlovchi oilaviy shifokor S. B. ish beruvchi tomonidan mehnat shartnomasi bekor qilinishi munosabati bilan yakuniy to'lovlar to'lab berilmaganidan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.



Tuman tibbiyot birlashmasi rahbarining joriy yil 19-apreldagi tegishli buyrug'iga ko'ra, S. B. bilan tuzilgan mehnat shartnomasi

xodimning tashabbusiga ko'ra bekor qilinib, unga qator yillar uchun foydalanilmagan mehnat ta'tillari yakuniy to'lovlari to'lab berilishi belgilangan. Biroq, o'rganish davomida xodimga foydalanilmagan 12 yillik mehnat ta'tili uchun 29 million 202 ming 165 so'm miqdoridagi yakuniy to'lovlar to'lanmagani ma'lum bo'ldi.

Vaholanki, Mehnat kodeksining 172-moddasiga asosan mehnat shartnomasi bekor qilinganda xodim bilan hisob-kitob qilinishi kerak va ushbu hisob-kitob foydalanilmagan barcha asosiy va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Adliya bo'limi tomonidan shifokorning foydalanilmagan mehnat ta'tillari uchun to'lovlarini undirish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Kattaqo'rg'on tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sudning hal qiluv qaroriga asosan fuqaro foydasiga 29 million 202 ming 165 so'm miqdoridagi to'lov undirib berilishi ta'minlandi.

Mehridin TOSHMURODOV,
Narpay tuman adliya bo'limi
bosh maslahatchisi

HISOBDA KO'P, TO'LOVDA KAM. NEGA?

SIRDARYO viloyat adliya boshqarmasida fuqaro M. Mahmudovaning homiladorlik va tug'uruq ta'til pullari kam to'langanidan norozi bo'lib yo'llagan murojaati o'rganib chiqildi.



Aniqlanishicha, M. Mahmudova 2023-yil 28-dekabrda homiladorlik va tug'uruq ta'tiliga chiqqan va unga 24 million 290 ming 120 so'm miqdorida nafaqa hisoblangan. Aslida esa 19 million 129 ming 100 so'm to'lab berilgan, xolos. Mazkur holat "Nurli maskan" maktab-internati bosh hisobchisi L. Tursunovning tushuntirish xatida ham o'z tasdig'ini topdi.

Vaholanki, "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha

nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomning 46-bandiga muvofiq, xodim yillik (asosiy va qo'shimcha) ta'tilda va bolani parvarishlash uchun ta'tilda bo'lgan vaqtda homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tili berilganda, nafaqa homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko'rsatilgan barcha kunlari uchun beriladi. Bolani parvarishlash bo'yicha ta'til davri uchun nafaqa tarif stavkasidan va ta'til boshlanishidan oldingi 12 oy mobaynida olingan mukofotlarning o'rtacha oylik summasidan hisoblab chiqariladi. Bunda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ochilgan kuniga bo'lgan tarif stavkasi joylarda belgilangan tuman koeffitsiyenti va ustamalarni hisobga olgan holda olinadi.

Yuqorida qayd etilganlarga asosan adliya boshqarmasi tomonidan viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi tasarrufidagi maktab internatga taqdimnoma kiritildi. "Dekret" pulini hisoblashda yo'l qo'yilgan xatolik bartaraf etilib, xodimga to'lanishi lozim bo'lgan 5 million 161 ming so'm qoldiq summa to'lab berilishi ta'minlandi.

Timur KARIMOV,
Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasi
mas'ul xodimi

NURAFSHON shahar adliya bo'limiga "To'ytepa" mahallasi, Mash'al ko'chasida yashovchi fuqaro I. Usmanov murojaat qilib, O'rtachirchiq tuman hokimining 2017-yil 6-apreldagi qarori bilan berilgan, hozirgi Nurafshon (muqaddam O'rtachirchiq tumani hududi bo'lgan) shahar, Toshkent yo'li ko'chasidagi "Nodirabegim" istirohat bog'i hududida joylashgan savdo do'koni davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun buzilganligini, lekin ko'rilgan zarar qoplab berilmaganini ma'lum qilib, zararni undirishda amaliy yordam berishni so'ragan.

BUZISH OSON, ZARARNI QOPLASH-CHI?



O'rganish davomida aniqlanishicha, fuqaro I. Usmanovga tegishli bo'lgan savdo do'koni binosi mustaqil baholovchi "Toshkent viloyati baholash va konsalting markazi" MCHJ tomonidan 510 million 462 ming 398 so'mga baholangani ma'lum bo'ldi.

Fuqaro I. Usmanov ushbu masala bo'yicha Nurafshon shahar hokimligiga ariza bilan murojaat qilgan. Ammo shahar hokimligi unga zararni to'lash o'rniga, kompensatsiyani to'lab berilishi yuzasidan sudga murojaat qilishi mumkinligi to'g'risida javob xati bergan.

To'plangan hujjatlarga ko'ra, adliya bo'limi tomonidan fuqaro I. Usmanovning manfaatida unga javobgar – shahar hokimligidan 510 million 462 ming 398 so'm kompensatsiya undirib berish yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Bekobod tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sud tomonidan da'vo ariza qanoatlantirilib, hal qiluv qarori qabul qilindi.

Sohibbek NURALIYEV,
Nurafshon shahar adliya bo'limi
bosh maslahatchisi



INSON yaralibdiki, ma'lum bir qonun-qoidalar asosida hayot kechirib keladi. Turmush tarzi, muhiti, urf-odatlariga qarab qonunlar turfa xil bo'lsa-da, barchasining asosida bir xil maqsad mujassam – inson huquqini ta'minlash. Shuningdek, zamon va makonda qonunlarning o'zgarishi ham hayotning eng muhim jarayonlaridan hisoblanadi. Bugungi zamonaviy yurist faqatgina "qonun hozirgi kun uchun" tamoyilida bilim olishi, shu asosda faoliyat yuritishi noto'g'ri, albatta. Uning qonunlar tarixini yaxshi bilishi, undan saboq olishi bilim va kelajakda mukammal qonun yaratuvchisi bo'lishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, tarixiy mavzuda ilmiy ish bilan shug'ullanuvchi huquqshunosga tarixiy manba kerak bo'ladi. Bunga esa Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazining Nodir adabiyotlar fondi yaqindan yordam beradi. Undan ko'plab tarixiy-yuridik adabiyotlar joy olgan, birgina kitobdan esa qanchalik muhim ma'lumotlarni bilib olish mumkin.

Bu noyob fondagi tarixiy kitoblardan biri – "Konstitutsionnoye gosudarstvo" deb nomlangan bo'lib, u 1905-yilda Sankt-Peterburg shahrida chop etilgan. Bir asrdan ko'proq umr ko'rgan ushbu asar o'z davrining eng yetuk insonlari, ziyoli qatlamning ilg'or vakillari tomonidan yozilgan, dolzarb mavzularga bag'ishlangan maqolalar to'plamidan iborat. Kitobdagi har bir maqola o'z davri haqida eng muhim ma'lumotlarni o'zida aks ettirgan. Ushbu asar 600 sahifadan iborat bo'lib, 2-nashr hisoblanadi. Asarning kirish so'zida quyidagi jumlar bitilgan: "Ushbu to'plamning paydo bo'lishi ayni vaqtda va zarurligini aytishga hojat yo'q. Joriy yil (1905) ning 18-fevralida Oliy Komissiya tomonidan ijobiy ma'noda hal qilingan va yakdil bayonotlardan so'ng davlat va hukumat boshqaruvida xalq vakillari ishtirokining ta'minlanishi va avtokratik-byurokratik tizim allaqachon rasman bekor qilinishi kerak degan xulosaga kelindi".

To'plamda 15 ga yaqin maqolalar keltirilgan va yuqori lavozim (Tashqi ishlar vazirligining rasmiy xodim)larda ishlagan yuridik fanlar doktori V. M. Gessen kabi olimlarning maqolasi chop etilgan. N. E. Kudrinaning "Organizatsiya viborov" nomli maqolasi esa o'z zamonasidagi saylovlar haqida yuqori saviyali ma'lumotlardan xabardor qiladi.

To'plam eski rus tilida yozilgan, ammo uni tushinish unchalik murakkab emas. Ushbu to'plamdan ko'zlangan maqsad o'z davridagi konstitutsiyaviy davlatning asosiy belgilari va o'zaro ta'sirini oydinlashtirishdan iborat bo'lib, maqolalar turfa xilligi bilan bunga erishilgan. Ushbu asar Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazining Nodir adabiyotlar fondida mavjud bo'lib, siz undan bemaol foydalanishingiz mumkin. Bunday nodir adabiyotlar esa fondga ko'plab topiladi.

Sherbek O'SAROV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Axborot-resurs markazi
Elektron-axborot resurslar bo'limi mudiri

6 SUD ZALIDAN

NAFS DOMIGA ILINGANLARNING ONLAYN OPERATSIYASI FOSH BO'LDI

XALQIMIZ bir-biriga yelkadosh bo'lgan, el koriga yaraydigan, kasbi-kori bilan kimningdir og'irini yengil, uzog'ini yaqin qilayotgan aka-ukalarga "otasiga rahmat" deya minnatdorchilik bildirib, duo qiladi. Yaxshilikning mukofoti yaxshilikdir, deganlari shu. Yomonlikning "mukofoti" esa o'zingizga ma'lum. Jinoyat ishlari bo'yicha Navoiy shahar sudining sayyor sud majlisida ko'rib chiqilgan aka-uka Sardor va Elyor Mavlonov hamda Alibek Qodirovlarning jinoyat ishida nafs quliga aylangan yosh yigitlarning kirdikorlari fosh etildi.

Sudlanuvchi S. Mavlonov (ism-shariflar o'zgartirilgan) vaqtincha ishsiz. E. Mavlonov esa jinoyat sodir etgan vaqtda Navoiy shahar soliq inspeksiyasida davlat soliq inspektori vazifasida xizmat qilgan. Ularning jinoiy sherigi A. Qodirov muqaddam "Garant bank" Navoiy filiali xodimi bo'lib ishlagan.

Sardor bu jinoiy operatsiyaga sardorlik qilgan. Ukasi Elyorning Navoiy shahar soliq inspeksiyasida mas'ul lavozimda ishlashidan foydalanib, ATB "Garant bank" Navoiy filiali xodimi A. Qodirov bilan jinoiy til biriktirib, nafs domiga ilindi.

Sardorga bu qing'ir rejasini amalga oshirish uchun ukasi Elyorning shahar soliq idorasida ishlashi, boz ustiga uning jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'limiga qo'shimcha xodim sifatida biriktirilgani qo'l keldi. Ustasi farang "uddaburon" o'z tanish-bilishlaridan 32 nafar fuqaroning pasport nusxasi, elektron raqamli imzo, uning paroli va boshqa shaxsga doir ma'lumotlarini qonunga xilof ravishda qo'lga kiritganiga nima deysiz? Qalbaki hujjatlardan boylik orttirish yo'lida g'arazli niyatda foydalanib, yuqoridagi shaxslarning xabarisiz va roziligisiz professional va oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim olayotgani bo'yicha soxta yozuvlar kiritgan. To'lov-kontrakt shartnomasi, ushbu shartnomaga asosan amalga oshirilgan to'lov kvitansiyalari, yillik ish haqlari to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, ipoteka shartlari asosida

sotib olingan uy-joy kredit shartnomasi, amalga oshirilgan to'lov kvitansiyalarini elektron ko'rinishda soxtalashtirgan.

Qalbaki hujjatlarni tayyorlab, 32 nafar shaxs nomidan "Elektron soliq xizmatlari" portali orqali soliq imtiyozlaridan foydalanish va daromadlar deklaratsiyasiga asosan to'langan soliq pullarining imtiyozli qismini qaytarib olish bo'yicha qalbaki hujjatlarni ilova qilgan holda murojaat qilgan.

Ushbu murojaatlarga asosan Davlat soliq qo'mitasining "Soliqlar va yig'imlarning ortiqcha to'langan yoki undirilgan summalarini hisobga olish, qaytarish hamda hisobini yuritish" tartibiga ko'ra, 32 nafar fuqaroga kimgadir 13 million, 21 million 658 ming, 7 million 229,2 ming, 14 million 916,6 ming, 3 million, 6 million 213 ming, xullas, jami 287 million 15,6 ming so'm pul mablag'larini qaytarish bo'yicha aylanma varaqalarini imzolagan. Jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish bo'limi boshlig'iga hisobga olish va budget daromadlarini prognozlashtirish bo'limi xodimiga murojaatlarni ko'rsatib, ulardagi barcha hujjatlarning haqiqiyliigi, pul mablag'larini qaytarish lozimligi bo'yicha ishontirib, soliqlar va yig'imlarning ortiqcha to'langan yoki undirilgan summasini qaytarish bo'yicha qarorlar rasmiylashtirilishiga hamda Navoiy shahar g'aznachilik bo'limiga pul mablag'larini qaytarish bo'yicha topshiriqnomaga yuborilishiga erishgan.



Bu ham kamlik qilganidek, yana bir guruh fuqarolarning xabarisiz va roziligisiz ularning nomlariga ATB "Garant bank" Navoiy viloyat filialidan A. Qodirov yordamida bank plastik kartalari ochishga erishdi. Soliq organi tomonidan 32 nafar fuqaroning Navoiy shahar g'aznachilik bo'limiga pul mablag'larini qaytarish bo'yicha yuborilgan yuqoridagi topshiriqnomasiga asosan ularning bank plastik kartochkalariga jami 287 million 15,6 ming so'm mablag'ni tushirib, aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan juda ko'p miqdordagi budget mablag'ini o'zining shaxsiy manfaatlari yo'lida sarflab yuborgan.

Olg'irning oshig'i olchi bo'ldi. U xuddi shunday protsedura bilan qing'ir ishini davom ettirib, yana 7 nafar hamyurtining "hojatini" chiqardi. Ularning plastik kartalarini olishga erishib, Nurota tuman g'aznachilik bo'limiga to'langan soliqlarning imtiyozli qismini qaytarish bo'yicha yuborilgan topshiriqnomaga asosan ularning bank plastik kartalariga jami 54 million 897,6 ming so'mlik miqdoridagi pul mablag'larini tushirib, o'z nafs yo'lida ishlatib yubordi.

Yana bir guruh tanishlarining plastik kartalarini ham qo'lga kiritib, soliq organidan imtiyozli qismini qaytarib olish bo'yicha qalbaki hujjatlar tayyorlab, Navbahor tuman g'aznachilik bo'limiga pul mablag'larini qaytarish bo'yicha topshiriqnomaga yuborilishiga erishadi. Bank plastik kartochkalariga jami 33 million 374,9 ming so'm pul mablag'ini ham tushirib, jig'ildoniga uradi.

ATB "Garant bank" Navoiy viloyat filiali rahbariyati qoshidagi IT-bosh mutaxassisi lavozimida ishlab kelgan A. Qodirovni sudning qora kursisiga 12 nafar fuqaroning xabarisiz va

roziligisiz o'zi ishlayotgan bankda ariza va shartnomalarni rasmiylashtirmasdan, bank plastik kartalarini ro'yxatdan o'tkazish kitobidan o'tkazmasdan begona shaxsga, ya'ni S. Mavlonovga bergani, qisqasi, nafs balosi yetaklab keldi.

Sud majlisida sudlanuvchi S. Mavlonov ham aybiga to'liq iqrorlik bildirdi. 42 nafar fuqaroga rasmiylashtirilgan jami 375 million 288,1 ming so'm pul mablag'ini soliq inspeksiyasida ishlagan ukasi E. Mavlonov hamda noqonuniy yo'l bilan 12 dona plastik kartalarini tayyorlab bergan bank xodimi A. Qodirov ko'magida qo'lga kiritib, o'z shaxsiy manfaatlari yo'lida sarflab yuborganini, qilmishidan pushaymonligini tan oldi.

Sud sudlanuvchilarga jazo tayinlashda aniqlangan 375 million 288,1 ming so'm zarar to'liq qoplab berilganini, qilmishidan pushaymonligini inobatga oldi.

Soxta hujjat tayyorlab, boyimoqchi bo'lgan yigitlarning onlayn jinoyat tarixi mana shunday nihoya topdi. Soxtalashtirilgan hujjatlar, kontrakt qog'ozlari, birovning plastik kartochkasiga tushirib olingan mo'may pullarni qaytarib to'lashga majbur bo'lgan "uddaburonlar"ga ozodlikni cheklash jazosi tayinlandi. Muayyan huquqdan, moddiy javobgarlik va mansabdorlik bilan bog'liq vazifalarda ishlash huquqidan mahrum qilgan holda, oylik maoshining 10 foizini davlat daromadiga o'tkazgan holda aka-uka Mavlonovlarga 2 yilu 6 oy, bank xodimi A. Qodirovga 2 yil muddatga axloq tuzatish ishlari tayinlandi.

Dilobar PARDAYEVA,
jinoyat ishlari bo'yicha Navoiy
shahar sudi sudyasi,
Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

AKSARIYAT hollarda ish haqidan ushlab qolish xodimning noroziligini keltirib chiqaradi. Ammo Mehnat kodeksida ish haqidan ushlab qolishning huquqiy asoslari qayd etilganki, bu hech qanday e'tirozga sabab bo'lmaydi.

ISH HAQIDAN USHLAB QOLISH MUMKIN. QACHONKI...

Kodeksning 269-moddasiga binoan, umumiy qoidaga ko'ra, xodimning yozma roziligi bilan ish haqidan ushlab qolinishi mumkin. Shuningdek, xodimning yozma roziligidan qat'i nazar, ish haqidan ushlab qolish mumkin bo'lgan holatlar ham bor. Xususan, soliqlar va yig'imlarni undirish, qonunda belgilangan tartibda sud qarorlari hamda boshqa ijro hujjatlarini ijro etish, qolaversa, vakolatli organlarning qonuniy talablarini bajarish uchun ish haqidan ushlab qolinishi mumkin.

Bundan tashqari, ish haqi hisobiga berilgan bo'nakni ushlab qolish uchun, boshqa joydagi ishga ko'chib o'tgani munosabati bilan xo'jalik

ehtiyojlariga, xizmat safarlariga berilgan, sarflanmagan va o'z vaqtida qaytarilmagan bo'nakni ushlab qolish uchun hamda hisob-kitobdagi xatolar oqibatida ortiqcha to'langan summalarini qaytarib olish uchun ham ish haqidan ushlanishi mumkin. Bunday hollarda ish beruvchi bo'nakni qaytarish, qarzdorlikni to'lash uchun belgilangan muddat tamom bo'lgan kundan yoki to'lov noto'g'ri hisoblab chiqarilgan kundan e'tiboran bir oydan kechiktirmay ushlab qolish haqida buyruq chiqarishga haqli. Agar bu muddat o'tib ketgan bo'lsa yoki xodim bo'nakni to'lash uchun ushlab qolish asoslariga yoxud miqdoriga e'tiroz bildirayotgan bo'lsa, qarzni



to'lash sud tartibida amalga oshiriladi.

Kodeksda xodim tomonidan ish beruvchiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash uchun, agar yetkazilgan zararining miqdori xodimning o'rtacha oylik ish haqidan oshmasa, o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarimani undirish, xodim qaysi ish yili hisobiga ta'til olib bo'lgan bo'lsa, o'sha yil tugaguniga qadar mehnat shartnomasi bekor qilinganda ta'tilning ishlab berilmagan kunlari uchun va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham ish haqidan ushlab qolinishi belgilangan.

Mehnat kodeksining 270-moddasida ta'kidlanishicha, har bir to'lov chog'ida ish haqidan ushlab qolingana mablag'larning umumiy summasi xodimga haqiqatda hisoblangan ish haqining ellik foizidan oshishi mumkin emas. Mazkur moddaning birinchi qismida belgilangan cheklov aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikni, shuningdek, axloq tuzatish ishlari tarzida jazo tayinlangan xodimning ish haqini ushlab qolishga nisbatan tatbiq etilmaydi. Bunday hollarda jazodan va aliment majburiyatlari bo'yicha qarzdorlikdan ushlab qolish miqdori xodimga haqiqatda hisoblangan ish haqining yetmish foizidan oshmasligi shart.

Fazliddin ALLAYOROV,
fuqarolik ishlari bo'yicha
Termiz tumanlararo sudi sudyasi

BOZORGUL OPANING

bekam baxti

Bozorgul Bekpo'latovani jizzaxliklar yaxshi bilishadi. Huquqshunoslik kasbini tanlagan oddiy qishloq qizi Toshkent davlat universitetining kunduzgi bo'limini tamomlab, mehnat faoliyatini 1976-yilda Forish tuman prokuraturasida ish yurituvchilikdan boshlagan. Salkam 35 yillik ish tajribasiga ega huquqshunos turli huquq-tartibot idoralarida xizmat qildi.

Forish tuman kasaba uyushmasi huquqshunosi, keyinchalik salkam 20 yil Forish tuman davlat notarial idorasi notariusi, huquqiy maslahatxona advokati, o'n yil Zafarobod tuman davlat notarial idorasi davlat notariusi bo'lib elga xizmat qildi. O'tgan yillar mobaynida meros, mulk, hadya, turli ishonchnoma va bitimlarni



rasmiylashtirish uchun kelgan qancha-qancha fuqarolarga xizmat qildi. Gohida muammoli masalalar paydo bo'lganda, zamondoshlarimizga huquqiy maslahat berdi, to'g'ri yo'l ko'rsatdi.

Bozorgul opa keyinchalik advokatura sohasida ishlashiga to'g'ri keldi. Advokatura huquqiy institutida advokatlik bilan shug'ullanishning ham o'ziga yarasha mas'uliyati va mashaqqati bor. B. Bekpo'latova Jizzax shahar "Advokatura" advokatlik firmasining advokati

sifatidagi faoliyatini qonun ustuvorligi, mustaqillik va boshqa demokratik prinsiplar asosida amalga oshirdi. Konstitutsiyamizga muvofiq O'zbekiston fuqarolariga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalarga yuridik yordam ko'rsatdi.

Bozorgul opa qayerda, qaysi lavozimda ishlamasin, qonun talabiga rioya qildi, adolat tarafdori, haqiqat talabgori bo'ldi. Halol mehnati, kamtarligi bilan obro'-e'tibor topdi.

Ayolning davlat va jamiyatdagi o'rni bilan birga oiladagi mas'uliyatli va sharafliligi – onalik, bekalik maqomi ham bor. Qahramonimiz ham davlat idoralarida samarali mehnat qilish bilan birga oila sha'nini ko'taradigan, elga munosib bilimli, mehnatkash, kamtar farzandlarni tarbiyaladi. Hayotda o'z yo'lini, o'ziga sevimli kasbni tanlagan o'g'il-qizlarining har bir yutug'i Bozorgul opaning quvonchi, baxti.

Qutlug' 70 yosh ostonasida turgan Bozorgul Bekpo'latovani chin dildan muborakbod etamiz. Umringiz va baxtingiz bundan ham ziyoda bo'lsin, deymiz.

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

ILLAT

KORRUPSIYA INSON HUQUQ
VA ERKINLIKLARINING POYMOL
BO'LISHIGA ASOSIY SABABDIR

KORRUPSIYA dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biri ekanligi barchamizga ma'lum. Bu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdagi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida olib borilayotgan islohotlar korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan.

Jumladan, 2022-yil 12-yanvarda "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilingan. Mazkur qaror bilan davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy davlat hokimiyati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini tahlil qilish, baholash va kamchiliklarni

bartaraf etishga qaratilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligini reyting baholash tizimi joriy etildi.

Reyting quyidagi beshta yo'nalish bo'yicha belgilangan indikatorlar asosida amalga oshiriladi. Ya'ni, unda davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilgan hamda amaliyotga tatbiq etilgan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilganligiga alohida e'tibor qaratiladi. Bundan tashqari, davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni ko'rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi, xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini

oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi inobatga olinadi. Shuningdek, mazkur reytingda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarining samaradorligi baholanadi.

Qabul qilinayotgan korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi hujjatlar ham aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari o'z ifodasini topgan.

Odatda, yaxshi tarbiya ko'rgan, huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan, huquqiy ta'lim va tarbiya jihatidan yetuk insonlar salbiy illat bo'lgan korrupsiyaga yo'l qo'ymaydi. Prezidentimizning ma'ruzalarida ham loqaydlik, beparvolik, poraxorlik, korrupsiya, soxtakorlik, mansab vakolatini suiiste'mol qilishga qarshi kurash butun jamiyatning maqsadiga aylanishi kerakligi doimo alohida ta'kidlanadi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, korrupsiyaga qarshi kurashish faqatgina davlatning yoki muayyan bir tashkilotning vazifasi emas, balki jamoatchilikdan va har bir shaxsdan yuksak mas'uliyat, Vatanga muhabbat hamda safarbarlikni talab etishini unutmasligimiz kerak!

To'liq TO'XTASINOV,
huquqshunos

E'LONLAR

2019-yil 29-yanvarda Toshkent shahar adliya boshqarmasi tomonidan advokat Djurayev Anvar Xudoykulovichga fuqarolik va iqtisodiy hamda ma'muriy va jinoiy sud ishlarini yuritish uchun berilgan 573-sonli advokatlik guvohnomasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Advokat Jamolov Muxammadjon No'monovich vafot etganligi va bu to'g'risida 2024-yil 5-aprel kuni 4-1701-24-00442-raqamli dalolatnoma yozuvi qayd qilinganligi sababli unga 2018-yil 17-dekabr kuni berilgan L-70664670 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 30-avgustdagi 302-um-son buyrug'iga asosan tugatildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Amudaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Niyazimbetov Ruslan Baxodirovichning notarial okrugini To'rtko'l tumaniga o'zgartirish haqidagi xabarnomasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 5-sentyabrdagi 194-um-son buyrug'i bilan Amudaryo tumanidan hisob ro'yxatidan chiqarish haqidagi xulosa tuzilib, hisob ro'yxatidan chiqarilganligi ma'lum qilinadi.



PIYODALAR UCHUN HAM MA'MURIY JAVOBGARLIK BORLIGINI BILASIZMI?



Bir kuni ko'chada sayr qilib yurgan kishi yo'l chetida o'tirgan keksa odamni ko'rib qoldi. U mo'ysafidning qarshisiga kelib, murojaat qildi:

– Otaxon, ulug' yoshli inson ekansiz, anchagina uzoq hayot yo'lini bosib o'tgansiz. Shubhasiz, juda dono bo'lsangiz kerak. Ayting-chi, mana, men yosh va kuchlimanu ammo hech qayerdan ish topa olmayapman, o'g'lim giyohvandlikka berildi, qizimni ham yaxshi tarbiyalay olmayapman, ayolim esa kun bo'yi uyda o'tirsa ham, hech qayerga qaramaydi. Xo'sh, men bu vaziyatda qanday yo'l tutishim kerak? Nima qilsam, bularning hammasini o'zgartira olaman?

Qariya javob berdi:

– Eshiging ustiga kichkinagina taxtacha osib, unga "Hamisha shunday bo'lavermaydi" deb yozib qo'y.

– Shu xolosmi? – hayron bo'ldi erkak.

– Shu xolos, – javob qildi keksa kishi.

U uyiga borib, qariya aytgandek qildi. Bir qancha vaqt o'tgach, uning o'g'li giyohvandlikni tashladi va hatto qilgan ishi gunoh ekanini tan olib, tavba qila boshladi. Qizi yosh bir yigit bilan yaxshi ko'rishib,

O'rinli maslahat



oila qurdi. Ayoli ham o'zgardi va risoladagi bekaga aylandi. Erkakning o'zi esa serdaromad ishga joylashdi va ko'p o'tmay, hatto mashina sotib oldi.

Kunlarning birida u tanish ko'chadan o'tib borayotib, ikki yilcha oldin keksa mo'ysafidni uchratgan joyida to'xtadi. Qariya hali ham shu yerda o'tirgandi. Erkak uning oldiga yaqinlasharkan, mashinadan tushmagan holda, uning oynasini ochib, so'z qotdi:

– Ha, boboy, haliyam o'tiribsizmi? Men bo'lsa, ko'rib turganingizdek, ancha narsaga erishdim. O'g'lim giyohvandlikni tashladi, endi u taqvoli yigit, qizim sevib, sevilib turmushga chiqdi. Ayolim ham yaxshi rafiqaga aylandi. O'zim ishga joylashdim va endi ishonamda martabali boshliqman. Siz esa haliyam o'shandek o'tiribsiz, no'noq chol! Xo'sh, endi menga nima deb maslahat berasiz?

Bu gaplardan qariyaning chehrasi o'zgarmadi, aksincha, u suhbatdoshiga xotirjam tikilgancha, dedi:

– Haligi taxtacha bor edi-ku, shuni olib tashlamagin...

Ruschadan Muhabbat SHARIFOVA tarjimai

G'ALATI QONUNLAR

Ayrim mamlakatlarda barcha qonunlar kulgili va mutlaqo ahmoqona bo'lsa ham, ayrim davlatlarda hali-hanuz amal qilishda davom etmoqda. Qonun chiqaruvchining yoki ushbu qonunlarning qabul qilinishiga erishgan aholiga qoyil qolmasdan iloj yo'q.

QOYIL QOLMAY ILOJ YO'Q!

Daniya:

haydovchilar otning ham ko'ngliga qarashadi

Avtomobilni boshqarishdan oldin haydovchi fara, tormoz, rul va mashina signalini tekshirishi lozim. Bundan tashqari, bolalar mashina ostida yashirinib olmaganligiga ishonch hosil qilish uchun avtomobilni yaxshilab tekshirish kerak.



Agar mashina ot aravasi yonidan o'tib ketayotganda, ot qo'rqib ketsa, haydovchi yo'l chetiga chiqib, to'xtashi lozim. Agar ot asabiylashsa, uni tinch-

lantirish kerak, haydovchi qonun bo'yicha mashinani biror narsa bilan yopishi kerak.

Xitoy:

suvda cho'kayotganni qutqarmang!

Xitoyda suvda cho'kayotgan odamni qutqarish qonunga ziddir. Chunki bu uning taqdiriga aralashish bilan barobar sanaladi.

Xitoyda talabaga kollejga kirishga ruxsat berishlari uchun u aqlli bo'lishi shart.



Janubiy Koreya:

pora oldingizmi, xabar bering!

Janubiy Koreyada yo'l harakati xizmati xodimlari haydovchilardan olgan poralari haqida xabar berishlari shart.



Tailand:

saqich uchun 600 dollar jarima

Piyodalar yo'lagiga saqich uloqti-rayotganda qo'lga tushib qolsangiz,

siz 600 AQSH dollari jarima to'lashga majbursiz. Agar jarimani to'lash uchun pulingiz bo'lmasa, sizni qamoqqa yuborishlari mumkin.

Har qanday tanga yoki milliy valyutadagi kupyuralarni oyoq bilan bosish jinoyat hisoblanadi.

Kanada:

uyni bo'yash ham jinoyat

Qonun bo'yicha fermalarda otlarni bog'lash uchun panjaralar bo'lishi shart.



Shahar hokimiyati ruxsatisiz pirotexnika vositalaridan foydalanish va qor o'ynash taqiqlanadi.

Shuningdek, yana bir g'alati qonun ham borki, kanadaliklar uyni bo'yashda ikkitadan ortiq rangdan foydalansa, jinoyat hisoblanadi.

Madina HAMDAMOVA tayyorladi